



THE LEVEL OF PSYCHOLOGICAL STUDY OF CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT

Jabbarbergenov Shinbergen Embergen ugli
Institutes 2-Kurs Magistranti
Nukus State Pedagogy Named After Ajiniyaz

Annotation

This article discusses the role of hearing in children and the mental states caused by its impairment, the mechanism of the process of psychocorrection, the state, the factor of overcoming the situation, the specifics of the process of braking and prevention, diagnosis and correction information is given.

Keywords: ontogenetic development, gender and age characteristics, cognitive, cognitive and affective aspects, genetic, social and personal factors, cognitive processes, excitation and inhibition processes, diagnostic and correction processes.

Introduction

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etish, jamiyatda sog'lom muhitni qaror toptirish, fuqorolarni ma'naviyatini shakllantirish va takomillashtirish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan Ta'lim to'g'risida Qonuning I-bob 3-moddasida:

-davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

- tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

- ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

5-moddasida esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonuning II-bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi [1]. Shu sababli, bugungi kunda maxsus maktablarida mehnat tarbiyasini takomillashtirishning samarali usullarini aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Mamlakatimizdagi mustaqil, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uning o'zligini anglashdagi



imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy barkamol, intellektual hamda aqliy-amaliy jihatdan mukammal yetuk kadrlarni tayyorlash uchun yangi shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Zamonaviy maxsus psixologiya psixikani kelib chiqishining ijtimoiy tarixiy tomoniga asoslanadi. Uning rivojlanishiga bola psixikasini madaniy-tarixiy tajribaga tayanib hayot davomida shakllanishi haqidagi rus psixologi L.S.Vigotskiy fikrlari katta ta'sir ko'rsatgan. L.S.Vigotskiyning ko'rsatishicha oliy psixik funksiyalar tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib murakkab tuzilishga ega. Ushbu xususiyat ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u insondagi faqatgina oliy psixiy funksiyalarnigina emas, balki elementar psixik jarayonlarni, ya'ni fonematik eshituv, ovozlarni eshituvlarni va xokazolarni o'z ichiga oladi. Psixik faoliyatning murakkab shakllarini yuzaga kelishiga olib keladigan ijtimoiy tajribani tayyor mazmunni o'zlashtirib olish jarayoni sifatida qarash mumkin emas. Bola tomonidan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish bilim, ko'nikma, madaniy madaniy malakalarni egallab olishdangina iborat bo'lmay, shuningdek o'ziga bolaning shaxsi, ehtiyojlari, motivlarini shakllantirishni kiritadigan chuqur, murakkab jarayondir. Ijtimoiy tajribani egallash bolaning faol faoliyatida, ya'ni– predmetli, o'quv, muloqot va o'yin jarayonlarida amalga oshiriladi. Ilk rivojlanish davrilaridayoq bolalarni kattalar bilan o'zaro muloqotga kirishishida oliy psixik funksiyalarining shakllanishi muhim o'rin egallaydi. Psixik funksiyalarning rivojlanishi bir nechta bosqichlardan o'tadi, va shundan keyingina ular murakkab psixik jarayonga aylanadi. Psixik faoliyatning barcha murakkab shakllari (ixtiyoriy diqqat, mantiqiy xotira, mavxum tafakkur va h.q.) bilvosita tuzilishga ega bo'lib, unda nutq bosh rolda keladi. Predmet va xodisalar mavjud emas vaqtda ham ularni o'rnini so'z egallaydi va har qanday psixologik jaryonni kechishini ifodalab, uning tuzilishini bir qismi bo'lib qoladi. Nutq oliy psixik funksiyalarning tuzilishi va amalga oshirishini yangi, yana ham yuqori darajaga ko'taradi. Oliy psixik funksiyalarni shakllanishing muhim tomoni - simvolik (ramziy) ramziy faoliyatning tashkil topishi, so'z belgilarni egallashdir. Dastavval belgi tashqi, yordamchi omil sifatida qatnashadi. L.S.Vigotskiy ta'qidlashicha, har bir psixik funksiya o'z rivojlanishida ikki bosqichni bosib o'tadi: birinchi "interpsixologik" bosqichda, funksiya insonlar o'rtasida munosabat o'rnatuvchi, ikkinchi bosqichda-ichki, intrapsixologik, jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Oliy psixik funksiyalar yillar davomida shakllanadi. U nutqiy muloqot bilan tug'ilib, faoliyatning to'liq ramzi (simvolik faoliyat) bilan tugallanadi. Bolaning psixik rivojlanishi va shaxsini shakllanishi ta'lim va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Shunday qilib, oliy psixik funksiyalar psixologiyada murakkab jarayon sifatida ko'riladi. Oliy psixik funksiyalarni shakllanishida nutq hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Psixofiziologik mexanizmlarni tushuntirish uchun P.K.Anoxinning funksional tizimlar haqidagi konsepsiyasi qo'llaniladi. A.R. Luriyaning ko'rsatishicha, funksional tizim bolani tug'ilish davrida tayyor holda bo'lmasdan, balki uning psixik funksiyalari predmetlar hamda materiallar bilan o'zaro munosabatga kirishganida shakllanib boradi. Funksional tizim - bu bir vazifani bajarish uchun bir qancha anatomik hamda fiziologik tuzilmalarni birlashtiradigan dinamik tuzilma bo'lib, turli nerv sistemalarida joylashgan. Psixologlar (A.R.Luriya, A.N.Leontev) doimiy ravishda oliy psixik funksiyalarning fiziologik negizi markaziy nerv sistemasi yoki uning alohida qismlari bo'lib qolmasdan, balki miya qobig'idagi funksional sistemaning birgalikda ishlashi deb ta'kidlaganlar. Bola hayot faoliyati jarayonida ushbu funksional sistemaning shakllanishi, sekin-astalik bilan murakkab xarakterga ega bo'lib, funksional bog'liqlik mustaxkamlanadi. Ushbu ilmiy nizom inson psixikasini



rivojlanishi haqidagi tasavvurlarni o'zgartirdi. Fiziolog va psixologlarning tadqiqotlaridan ko'rishimiz mumkinki, alohida funksiyalar sistemasining yetilganligi ma'lum bir rivojlanish davrida bir xil emas: ba'zi sistemalar shakllanib bo'lgan, ba'zilari esa endi shakllanadi. Shunga ko'ra, funksiyalarning rivojlanish tizimi bir xil emas ekan, deb xulosalash mumkin. Har bir funksional sistema, xatto alohida zonalar o'zining rivojlanish dasturiga ega, lekin ular bir butunlikda ish olib borishadi. Har bir yosh davrda ma'lum bir funksional sistema yetuklik darajasida bo'lishi kerak, aks xolda ushbu sistemalar faoliyati o'zaro aloqadorlikda amalga oshirila olmaydi (L.O.Badalyan). Shunday qilib, psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlari bosh miyaning alohida qism yoki zonalarida yetuklik natijasi hisoblanmaydi. Ular ontogeneza to'planadi hamda bolaning ijtimoiy rivojlanish vaziyatiga bog'liq bo'ladi. L.S.Vigotskiy o'zidan oldingilarni (G.Ya.Troshin, A.S.Griboedov, E.Segen, M.Montessori va boshqalar) ishlarini umumlashtirdi hamda anomal rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Ushbu konsepsiyaning asosiga psixologik rivojlanishning madaniy-tarixiy nazariyasi kiradi, buni L.S.Vigotskiy rivojlanishning normal xususiyatlarini o'rganib ishlab chiqqan. L.S.Vigotskiyning anomal rivojlanish konsepsiyasining asosiy belgilari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular XX asrning 50-90 yillardagi T.A.Vlasova, J.I.Shif, V.I.Lubovskiy, V.V.Lebedinskiy, Ye.M.Mastyukova va boshqa olimlarning ishlarida o'z rivojini topgan. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar (rivojlanishida psixik-jismoniy kamchilikka ega, rivojlanishdan orqada qolish, rivojlanishida muammoga ega, alohida yordamga muhtoj) - sensor organlarning orttirilgan yoki tug'ma organik jarohatlanishi natijasida markaziy nerv sistemasi yoki harakat-tayanch apparati va psixik funksiyalarning me'yorda rivojlanishida kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar kiradi. Ba'zi hollarda rivojlanishdagi kamchiliklar markaziy nerv sistemasi yoki analizatorlardagi nuqsonlar bilan bog'liq bo'lmasdan, mikroijtimoiy muhit sabablari natijasida kelib chiqadi. Bularga oiladagi tarbiya salbiy shakllari, ijtimoiy va hissiy deprivatsiyani kiritishimiz mumkin.

G.Ya.Troshin me'yorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fikrni ilgari surgan, buni esa ko'pgina tadqiqotchilarning (T.A.Vlasova, J.I.Shif, V.I.Lubovskiy) keyingi ishlarida ham ko'rishimiz mumkin. L.S.Vigotskiy me'yorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini izohlab, ular uchun psixik rivojlanishning ijtimoiy xarakterdaligi umumiydir: pedagogik ta'sir me'yorda ham shuningdek rivojlanishning buzilishida ham oliy psixik funksiyalarning shakllanish manbai hisoblanadi, deb ta'kidlagan. Ammo, me'yorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatilmaydigan, lekin rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda uchraydigan bir qator qonuniyatlar ham ajratiladi. T. A.Vlasova, V.I.Lubovskiy ishlarida anomal rivojlanuvchilarning umumiy qonuniyatlari bir tizimga keltirilgan. L.S.Vigotskiy nuqsonlarni tuzilishini sistemaliligi haqidagi fikrlari unga anomal rivojlanishini ko'ra ikki guruhga ajratish imkonini bergan. Bu kasallikning biologik xarakteriga ko'ra kelib chiqadigan birlamchi nuqson, bolaning ijtimoiy rivojlanishida, uning atrof-olam o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsondir. Anomal rivojlanish birlamchi nuqsonning kelib chiqish vaqti va uni ifodalanishining qay darajada og'irligi bilan aniqlanadi. Ikkilamchi nuqsonlarning shakllanish mexanizmi turli xil bo'lishi mumkin, ammo unda doimo ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. Ko'ruv, eshituv organlarining yoki bosh miyaning u yoki bu tuzilmalaridagi jarohatlar natijasida kelib chiqadigan nuqsonlar xarakteri, chuqurligi bo'yicha turli toifadagi



rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda turlicha bo'ladi. Biroq ushbu holatlarning umumiy tomoni shundaki, ularning barchasi bolani keyingi rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib boradi. Psixodiagnostik va psixologo-pedagogik kooreksion ta'sirning ob'ekti bo'lib asosan ikkilamchi nuqsonlar xisoblanadi. Bir qancha yetakchi mutaxassislarning ishlarida ko'rsatilishicha, bolalardagi birlamchi nuqsonlar aqliy qobiliyatning buzilishiga, umumiy va mayda motorikadagi kamchiliklarga, atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishdagi qiyinchiliklarga, kommunikativ muloqot vositalarini o'zgarishiga, so'zlashuv nutqining yetarlicha bo'lmashligiga, atrof -muhitni idrok etishni qiyinlashishiga, ijtimoiy tajribani kambag'allashuviga olib kelishi mumkin ekan. Nuqsonlarning o'zaro ta'siri ijtimoiy muhit bilan ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar tug'dirishini L.S.Vigotskiy ham ta'kidlagan. J.I.Shifning ko'rsatishicha, anomal rivojlanishning yana bir qonuniyati bola shaxsining rivojlanishidagi o'zgarishlardir. Kayfiyatning yo'qligi, ijtimoiy muloqotga vahima, qo'rquv bilan kirishuv, o'z-o'ziga past baho berishi, xavotirda bo'lish kabilar ushbu shaxsning asosiy sifatlari hisoblanadi. Bunday buzilishlar oiladagi noto'g'ri tarbiya hamda ta'limning noto'g'ri tashkil etilishi oqibatida kelib chiqadi. Aloqa qobiliyatidagi o'zgarishlar bolalar so'zlashuv nutqini buzadi natijada noverbal aloqa vositalarining roli ko'payib boradi. Ma'lumotlarni qabul etish va ularni qayta ishlash qobiliyatidagi kamchiliklar V.I.Lubovskiy ta'kidlashicha, qabul etilayotgan ma'lumotlar hajm va tezligini susaytiradi, ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanishga imkon bermaydi. Anomal rivojlanishning yana bir qonuniyatlaridan biri-nutqiy faoliyatning buzilishidir, bu so'zlashuvni bivosita ifodalay olmasligida namoyon bo'ladi.

Ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlay olmaslik, muloqotdagi qiyinchiliklar, materiallarni eslab qola olmaslik rivojlanishning fikrlash, umumlashtirish va farqlash kabilarni shakllanishida to'squinlik qiladi. Ushbu tasavvur va nutqdagi kamchiliklarning barchasi atrof -muhitni idrok etish, tasavvuridagi bilimlarini saqlash kabilarning shakllanishi ushbu muammoli bolalarda doimo yetarlicha emasdir. Biroq rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning muhitga moslashtirish va o'qitish qiyinchiliklaridan iborat o'ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda, ijobiy qonuniyatlar ham mavjud. Ulardan biri L.S.Vigotskiy tomonidan rivojlanishning yaqin zonasi ko'rinishida nuqsonli bolalarda psixikasini shakllantirishning potensial imkoniyatlar sifatida mavjudligi qayd etilgan. Ma'lumki, har tomonlama sog'lom muhit hukmron ekan, farzandlarimiz barkamol voyaga yetadilar, fuqarolari barkamol jamiyat esa hech qachon zavol topmaydi. Mamlakatimizda aynan mustaqillik yillarida bu borada talay ijobiy ishlar amalga oshirildi, davlat dasturlari, hukumatning maxsus qarorlari qabul qilindi. O'zbekiston bolalar huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Konvensiyani ratifikatsiya qilgan hamda BMTning bola huquqlari qo'mitasi tavsiyalarining bajarilishi yuzasidan Milliy harakat dasturini qabul qilgan davlat sifatida har bir bolaning tug'ilgan onidan boshlab oila muhitida tarbiyalanishi, uning salomatligi, aqliy va jismoniy kamoloti uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilishi davlat ahamiyatiga molik masala ekanligini amalda ta'minlashga katta ahamiyat berib kelmoqda. Shu ma'noda "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi ana shu e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir amaliy ifodasidir [2]. Zamonaviy psixologiyada ontogenetik rivojlanishning turli bosqichlari o'ziga xos jins va yosh xususiyatlarini namoyon etuvchi turli kognitiv, kognitiv va affektiv "jabhalar bir qator genetik, ijtimoiy va shaxsiy omillarning o'zaro uyg'unlashuvida ro'y berib, turfa ko'rinishli va katta ta'sir kuchiga egaligi bilan subyektning xulq-atvor mexanizmida o'ziga xos



individual-psixologik, individual-dinamik xususiyatlar, uning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, kauzal, kazusli vaziyatga tushganga qadar yashagan ijtimoiy-psixologik muhit bilan belgilanib, shaxs rivojlanishi va shakllanishida katta ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi. Zero, shaxs va uning tashqi olamni bilish imkoniyatlari bilish jarayonlari, ya'ni psixik jarayonlar orqali tushuntiriladi. Idrok va xotira jarayonlarining samaradorligi va ularni boshqarish psixik jarayon bo'lmish diqqatga bevosita bog'liqdir. Eshitishda kamchiligi bor shaxslarni o'rganish va diagnostika qilish psixologning amaliy faoliyatiga yordam beradi. Ayni vaqtda psixologik diagnostikaning barvaqt amalga oshirilishi nutq bilan bog'liq salbiy holatlarning intervensiyasi uchun zamin yaratadi. Shu tariqa eshitishda nuqsoniga ega bo'lgan bolalar psixik rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi bir qator ma'lumotlar yog'ildi. Keyingi yillar davomida eshitishda nuqsonini o'rganuvchi olimlar o'z diqqatlarini mexanizmlari va bartaraf etish usullarini o'rganishgan. Eshitishda nuqsoniga ega bolalar psixik rivojlanishini o'rganishga esa kam ahamiyat berganlar. Yaqin yillardan boshlab, maxsus psixologiyani muammolariga bo'lgan qiziqish nisbatan ortdi. Eshitishda nuqsoniga ega bo'lgan bolalar psixik rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarini turlicha eshitish buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion ishlarni olib borish davomida har bir eshitish kamchiliklariga aynan o'zigagina xos bo'lgan psixik jarayonlarni va xususiyatlarni o'rganish bilan bog'liqdir. Shuningdek, eshitishda kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus o'quv tarbiyaviy muassasalarda, maxsus guruhlarda olib boriladigan korreksion ishlar, ularning xalq ta'limi tizimida o'rni, bog'cha va maktab sharoitida ular bilan yakka tartibda olib boriladigan psixologik ishlarining uslub va shakllarini bayon etadilar. XX asrning so'nggi yillarda eshitishda kamchiligi hamda uning oqibatida yuzaga keladigan yuqori darajadagi ijtimoiy dezadaptatsiya holatlari yuzasidan ota-onalarning psixolog, psixiatr hamda nevropatologlarga murojaatlari soni tobora ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Ko'pchilik ota-onalar va pedagoglarning ushbu patologiya haqida aniq hamda to'liq tasavvurga ega emasliklari oqibatida bu bolalarga ko'pincha "quloqsiz", "esipastroq", "bezori", "o'zlashtirmovchi" bolalar sifatida munosabatda bo'linishi mazkur patologiyani yanada ham kuchayib ketishiga olib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eshitishda nuqsoni mavjud bo'lgan shaxslarda xulq-atvorning buzilishi asosida bosh miyaning peshona qismi po'stlog'i va dumsimon yadro tomonidan ta'minlanuvchi harakat faolligini tormozlovchi nazoratining pasayishi yotadi. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof - muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaymiz. Bu jarayonlar - sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyindir. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni ilmiy tadqiq etish bo'yicha N.V.Dobrinin, N.V.Kuzminina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, F.N.Gonobolin kabi bir qator olimlar tomonidan olib borilgan. Eshitish azolariningning fiziologik asoslarini tushuntirishda esa rus fiziologlari I. P.Pavlov, A.A.Uxtomskiylarning olib borgan ishlari muhimligi bilan ajralib turadi. Ularning ta'limotlariga asosan, nutqning holatlari, sifatleri, xususiyatlari, birinchidan, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro birgalikdagi harakati bilan, ikkinchidan, miya strukturasida hukm suruvchi qo'zg'aluvchanlik bilan uyg'unlikka egadir [3]. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiyatining o'ziga xos jihatlarini o'rganish, diagnostika va korreksiya qilishda quyidagicha belgilanadi:



- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy rivojlanishning umumiy va maxsus qonun-qoidalarini aniqlash;
- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar bilish faoliyatini rivojlanish xususiyatlarini o'rganish;
- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiy rivojlanish xususiyatlarini psixologik korreksiya va diagnostika qilish;
- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarga pedagogik-psixologik ta'sir usullarini psixologik jihatdan asoslash;
- Eshitishda kamchiligi mavjud bolalarni diagnostikasi va korreksiyasi jarayonidir[4].

Bolalarda eshitishning roli va uning buzilishi oqibatida kelib chiqadigan psixik holatlarda maktab davrida ovoz taassurotlarining yuqori chastotasi ham eshitishning yuqori chastotasi ham eshitish qobiliyatini pasayishiga olib kelishi mumkin. Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishga homiladorlikni noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklari ham muhim rol o'ynaydi. Eshitish buzilishi sabablari eshitish sezgilarini tug'ma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofini, ximik zaharlanish, tug'ish davridagi travmalar, mexanik travmalar, kuchli ovoz ta'sirotlarining akustik ta'siroti bo'lishi mumkin. Eshitish buzilish o'rat quloqni o'tkir shamollashi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Eshitishning qat'iy buzilishi burun va halqum (adenoid, xronik shamollashish) kasalliklari natijasida ham kuzatiladi. Bu kasalliklar chaqaloqlik chog'ida jiddiy xavf soladi. Eshitish pasayishiga ta'sir qiluvchi omillar orasida ototopsik preporatiplar asosan antibiologiklar muhim o'ringa egadir. Eshituv funksiyasi buzilishi asosan chaqaloqlik davrida ko'p uchraydi. L.V.Neylan (1959) eshitish buzilishlari 70 %i 2-3 yoshlarda kuzatilishini e'tirof etib o'tadi. Bola hayotining keyingi yillarida eshitishni pasayishi kam kuzatiladi [5]. Hulusa qilib aytganda eshitishda nuqsoni mavjud bo'lgan shaxslarda xulq-atvorning buzilishi asosida bosh miyaning peshona qismi po'stlog'i va dumsimon yadro tomonidan ta'minlanuvchi harakat faolligini tormozlovchi nazoratining pasayishi yotadi. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof - muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaymiz. Bu jarayonlar - sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqqi, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyindir. Tadqiqotlarni o'rganish va tahlil etish natijasida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammosi tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali pedogogik-psixologik muammo ekanligi namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lex.uz/.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh.,2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Lex.uz/.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV. Toshkent sh., 2008-yil 7-yanvar, O'RQ-139-son
3. Veronova T.V. Teoriya i praktika korreksionnoy pedagogiki. - Minsk.: 2007.
4. Vospitatelnaya rabota v shkole slaboslishamux. Iz opita raboti surdopedagogov. Pod red. L.V.Nikulinoi. - M.: Prosveteniye,1981.
5. Zikova T.S., Zikova M.A. Metodika predmetno-prakticheskogo obucheniya v shkolax dlya gluxix detey. -M., "Akademiya". 2002.